

**SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR
YO'NALISHLARI****O'.M. Baytanov**Jizzax Politexnika instituti Servis fakulteti
"Iqtisodiyot va menejment" kafedrasida assistenti**Baxtiyorova Sarvinoz**Jizzax Politexnika instituti Servis fakulteti
531-22 guruh talabasi

Soliq siyosati soliqlarning jamiyatdagi o'rnini belgilab beradi. Davlat soliqlar siyosati yordamida mamlakatda asta-sekin, bosqichma-bosqich soliqlar islohotlarini amalga oshiradi. Bozor aloqalariga xos bo'lgan tartib va qoidalarni bizning kundalik hayotimizga joriy etish, tadbirkorlikni keng tarqatish, soliqlar to'lovchilar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq to'lash, soliqlar to'lovchilarning soliqlar qonunchiligini chuqur bilishlari va uning talablarini to'liq bajarishlari - mamlakatimiz soliqlar siyosatining moliyaviy inqirozga qarshi kurash va iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi talablariga to'la mos kelishini ko'rsatdi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining soliqlar tizimi hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida soliqlar siyosatining takomillashib borishi natijasida to'xtovsiz ravishda takomillashib bormoqda, bu esa o'z navbatida mamlakatimiz iqtisodiyoti samaradorligini oshirishga va aholi farovonligining to'xtovsiz o'sib borishiga olib bormoqda.

Bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasining soliqlar siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- iqtisodiyotga soliqlar yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliqlar solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'rtasidagi soliqlar yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;
- soliqlarni unifikatsiya qilish yo'li bilan ularni maqbullashtirish, o'xshash soliqlar solish bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliqlar hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish;
- makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va uning daromadlarini mustahkam shakllantirishni ta'minlash;
- soliqlar qonunchiligini soddalashtirish, soliqlar munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, insofli soliqlar to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyasini kuchaytirish;
- soliqlar solish masalalarini tartibga soladigan havoila qiluvchi normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda soliqlar qonunchiligining barqarorligini hamda O'zbekiston Respublikasi Soliqlar kodeksi normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishini ta'minlash, shu jumladan, kodeksda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalari miqdorlarini belgilash;
- xorijiy investorlar va investitsiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;
- soliqlar nazoratining shakli va mexanizmlarini, shu jumladan, soliqlar solish obektlari hamda soliqlar to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarini shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarga soliqlar solish tartibini joriy etish.

Soliqlar siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri korxonalar zimmasidagi soliqlar yukini kamaytirish emas, balki soliqlar tortishning maqbul tizimini

shakllantirish deb hisoblaymiz. Belgilangan yo'nalishlardagi muammolar ijobiy hal qilinsa, korxonalar boqimandaligini kamayishiga, soliqlarni byudjetga o'z vaqtida to'liq undirishga, takror ishlab chiqarishni tezlashtirishga va boshqa muammolarning hal qilinishiga, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarning va soliq siyosatining asosiy maqsadlaridan biri, mamlakatda ishlab chiqaruvchilar o'rtasida erkin raqobatni yuzaga keltirish orqali ichki bozorni to'yintirish hisoblanadi. Soliq siyosatining imtiyozli yo'nalishlari bu maqsadni ba'zan inkor etishini kuzatamiz, ya'ni bir tarmoqdagi ikki xo'jalik yurituvchi sub'ektning biriga imtiyoz berish orqali, ikkinchisining imkoniyatlarini kamaytirib qo'yish mumkin. Imtiyozlarni belgilashda asosiy omil qilib tarmoq xususiyatini e'tiborga olish maqsadga muvofiq. Bu esa, bir tarmoq ichida erkin raqobatni va narxlar tengligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soliqlar umumiy iqtisodiy tizimning bir bo'g'ini hisoblanib, amalga oshirilayotgan soliq siyosati strategiyasi va taktikasi mamlakatning makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy ko'rsatkichlariga sezilarli tarzda ta'sir etadi. Shunday ekan, soliq siyosatining strategiyasini va taktikasini uzviylikini ta'minlashning asoslarini o'rganish ham muhimdir. Chunki soliq siyosati strategiyasini chuqur o'rganib, ilmiy asoslash orqali soliq taktikasini samaradarligini oshirish va bozor iqtisodiyotida davlatimiz va yurtboshimiz mamlakatimiz ravnaqi uchun belgilagan strategiyasiga, ko'zlagan maqsadga erishish oson kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5953-sonli farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi rasmiy sayti <https://stat.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti <https://cbu.uz/oz/>
5. O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari <https://mitc.uz/news/513>
6. The guardian jurnali ma'lumotlari. <https://www.theguardian.com/commentis>